

MAVZU: “AMIR TEMUR VA
TEMURIYLAR IMPERIYASI
DAVLATI VA HUQUQI”

O'QUV MASHG'ULOTINING TEXNOLOGIK XARITASI

Mashg'ulot mavzusi: “Amir Temur va Temuriylar imperiyasi davlati va huquqi” (2-soat)

Mashg'ulot turi: ma'ruza

Ishtirok etuvchilar: 70 nafar talaba

Dars jarayonida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar:
prezentasiya, tarqatma materiallar, testlar.

O'quv mashg'ulotidan ko'zlangan maqsad: Talabalarda Amir Temur va Temuriylar imperiyasi davlati va huquqiga oid ko'nikmalarni shakllantirish.

Uyga vazifa: Mavzuni kengroq o'zlashtirib seminar mashg'ulotiga tayyorlanib kelish.

REJA

1. Amir Temur va temuriylar saltanatining tashkil topishi.
2. Temuriylar davlatining boshqaruv tizimi.
3. Temuriylar davlatining sud hokimiyati, harbiy qo'shini va soliq tizimi.
4. “Temur tuzuklari” – temuriylar saltanatining huquq manbai.
5. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

■ Rahbariy adabiyotlar:

1. I.A.Karimov. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat va mafkura. T.1.- T.: "O'zbekiston". 1996 y 364 bet.
2. I.A.Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2. – T.: "O'zbekiston". 1996 y 380 bet.
3. I.A.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. . T.3. – T.: "O'zbekiston". 1996 y 366 bet.
4. I.A.Karimov. "Amir Temur haqida so'z" BMT Yunesko qarorgohidagi nutqi Parij. 1996 yil. 20 bet.
5. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T.: "O'zbekiston". 2008 y. 176 bet.

- **Normativ – huquqiy xujjatlar**

1. BMT Yunesko tashkiloti Bosh Assambleyasining XXVIII-sessiyasi 1995 yil “Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to’g’risida”gi Qarori

•Maxsus adabiyotlar

1. Z.Muqimov "O'zbekiston davlati va huquqi tarixi" Samarqand, "Zarafshon". 1998 y.
2. X.Boboev. A.Temur va Temuriylar saltanati. T., "Kamalak", 1996 y. 294 bet
3. Amir Temur o'g'itlari. T., 1992 y.
4. B.Ahmedov. Tarixdan saboqlar. "O'qituvchi" T., 1994 y.
5. A.Sagdullaev va boshqalar. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. 1-qism "Akademiya". T., 2000 y.
6. "Temur Tuzuklari" "G'ofur G'ulom". T., 1991 y.
7. H.B.Boboev. O'zbek davlatchiligi tarixi.T.: - 2005 y.
8. M.Hamidova. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi".O'quv qo'llanmasi.T.TDYuI –2005 y. 183 bet
9. M.Hamidova. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi. O'quv-uslubiy qo'llanma.T.TDYuI. 2008 y. 112 bet



Kimki o'zbek nomini, o'zbek millatining kuch-qudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat rivojiga qo'shgan hissasini, kelajakka ishonchini anglamoqchi bo'lsa, Amir Temur siymosini eslashi kerak.

Islom Karimov



Biz kim mulki Turon
Amiri Turkistonmiz
Biz millatlarning eng
qadimi va eng ulug'i
Turkning bosh
bo'ginimiz.


Amir Temur



Amir Temur davlati 1,5 mln. kv.km. hududda – Xitoy chegaralaridan boshlab to Sharqiy Rim va Misr yerlarigacha bo'lgan hududlarda o'z imperiyasini tuzdi. Amir Temur davlati 27 ta podsholikni egalladi.




Amir Temur davlati bayrog'i



Amir Temur davrida davlat bayrog'i juda katta ijtimoiy siyosiy, ma'naviy ahamiyat kasb etgan. Dushman ustidan mardlik ko'rsatib g'alaba qozongan amirlar va sipohiylar Temur davlatining timsollari – tug' va nog'ora bilan mukofatlanganlar. Bu ham sohibqiron saltanatida davlat ramzlari nechog'li baland turganligidan dalolatdir.

АМИР ТЕМУР АЖДОДЛАРИНИНГ ХУКМРОНЛИК ШАЖАРАСИ



Temuriylar nasabnomasi
 Ilk marotaba Shohruh
 Mirzo saroyida tuzilgan.
 Halil Sulton buyrug'i bilan
 Amir Temur shajarasi to
 Odam Atogacha olib
 borilgan. Go'ri Amir
 maqbarasida Amir
 Temurning nasabnomasi
 nefrit toshga bitilgan.

AMIR TEMUR AJDODLARI SHAJARASI

NUH –YOFAS – TURK – ALMAJNAXON – DEBODQO'YXON – KO'KXON –
ALINJAXON

MO'G'UL

TOTOR


MO'G'UL

QORAXON - O'GUZXON – YULDUZXON - MINGLIXON – TANGRIXON –
ELXON – YULDUZ MINGLI O'G'LI – QIZI JO'BINA – QIZI ALONQUVONUR –
BUZUNJAR – BUQO – DUTUMMANIN – QAYDU – BOYSUNG'UR –


TUMANAXON

QABUL
BURTON BAHODIR
YASUKI BAHODIR
TIMUCHIN (CHINGIZXON)
JO'JI
CHIG'ATOY
O'QTOY
TO'LI

QOCHULI BAHODIR
ERDAMCHI BARLOS
SUG'U CHECHAN
QORACHO'R NO'YON
IYJIL NO'YON
ILANGIZ BAHODIR
AMIR BURKUL
AMIR TARAG'AY
AMIR TEMUR




Ikki buyuk jahongir




- 1402 yil 20 iyul Anqara jangi
- Sulton Boyazidning Amir Temur huzuriga asir qilib olib kelinishi.
- 1403 yil 9 mart kuni Sulton Boyazid vafot etdi.

“YEVROPA HALOSKORIGA”



1900 yil Parij ko'rgazmasida Amir Temurning oltin haykali qo'yilgan edi. Bu haykal keyinchalik o'g'irlangan. Fransuz olimi L.Keren Temuriylar tarixi muzeyiga bu haykalning rasmini sovg'a qilgan.

TEMUR TUZUKLARI



“Temur tuzuklari” ikki qismdan iborat. Birinchi qism sohibqiron hayotining eng e’tiborli voqealari, ikkinchi qism davlatni boshqarish qonun qoidalaridan, y’ani 27 tuzuklardan tashkil topgan.

Alixonto'ra Sog'unliy



1967 yil Toshkentda “Tuzuki Temuriy”ni eski forsiydan o'zbek tiliga birinchi bor to'liq tarjima qilgan zahmatkash inson Alixonto'ra Sog'unliydir. Bu kitob 1991 yildagina nashr qilindi. Ungacha “Qonxo'r Temur”ni oqlab yozish katta jasoratni talab qilar edi.



Akademik Ibrohim Mo'minov (1908-1974) komunistik mafkura hukmronligi davrida Amir Temur shaxsini to'g'ri yoritgan yagona olim edi. I. Mo'minov "Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va ro'li" asarida Amir Temur shaxsiga haqqoniy baho berishga harakat qildi.

Sobiq sho'rolar davrida Stalin, Malenkov, Xrushchev, Brejnev, Andropov bilan birgalikda ishlagan, urush, mehnat, partiya fahriysi N. Muhitdinov 1957 yilda O'zKP MKning birinchi kotibi bo'lib turgan paytida Amir Temur nomini tiklashga harakat qilgan o'zbek xalqining sevimli farzandi edi. U o'z xotiralarini "Kremlda o'tgan yillarim" kitobida bayon etgan.




Nuritdin Muhitdinov

Sobiq sho'rolar davrida Amir Temur qiyofasi

1941 yil iyunda Amir Temurning qabri ochilib uning ruhi bezovta qilindi. Antropolog Gerasimov tomonidan tiklangan Amir Temurning qiyofasi sobiq sho'rolar davridagi sohibqironning yagona tasviri edi. Bu tasvir "Fan va turmush" jurnalida Ibrohim Mo'minov tomonidan e'lon qilingan maqolada chop etilgan.




1973 yil sobiq sovet delegatsiyasi tarkibida O'zbeistondan Naim G'oibov Hindistonda safarda bo'ldi. O'shanda Dehlidagi "Qizil qal'a" majmuidagi bir go'zal bog'ni ko'rdi. Bu qa'la va bo'g Amir Temur avlodlari ijodi ekanligini, bu ishlarning bosh tashabbuskori Amir Temur ekanligi bilan birinchi bor mag'rurlangan edi.



“OQSOQ DARVESH ”

Qariyib bir yarim asr muqaddam vengriyalik Xerman Vamberi Movarounnahrda bo'lib o'zining “Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi” asarini yaratdi. Vamberi Amir Temurga shunday haqqoniy baho bergan edi: “Temurni Chingizxon bilan bir qatorga qo'yib uni yovuz, o'zboshimcha, mustabid hokim deb atovchilar-ning fikrlari ikki tomonlama hatodir.



U avvalo o'zining g'olibona qurolini zamonasining odatiga ko'ra ishga solgan Osiyolik hokim edi. Uning dushmanlari ta'kidlagan qabih ishlari va vayronagarchiliklari esa biror jinoyat uchun olingan o'ch edi holos. Tog'ri, bu o'ch juda qattiq, lekin shu bilan birga adolatli edi.” Vamberi “Oqsoq darvesh” qiyofasida asl ota yurtlari eski Turkiston bo'lgan mojarlar tarixini o'rganish uchun yurtimizga kelgan edi.



Go'ri Amir maqbarasi

Go'ri Amir maqbarasida Amir Temur, uning o'g'illari Shohruh Mirzo, Mironshoh Mirzo, nabiralari Muhammad Sulton, Mirzo Ulug'bek qabrlari joylashgan.

Amir Temurning bosh tomonida uning pirlaridan biri Mir Sayid Baraka osoyish topganlar. Amir Temurning qabr toshlaridagi yozuvlar 1948 yil Semyonov tomonidan o'qib chiqilgan.



Go'ri Amir maqbarasining ichki ko'rinishi



Shohi Zinda maqbaralar majmuasi



Shohi Zinda majmuasidagi Qusam ibn Abbos dahmasi.

Muhammad Payg'ambarning jiyani Qusam ibn Abbos, xalq orasida esa afsonaviy Shohi Zinda deb ataladi. Butun musulmon sharqida Shohi Zinda majmuasiga teng keladigani yo'qdir.



Oqsaroy qurilishi 1380 yilda boshlangan bo'lsa, 1404 yil Ispaniya elchisi Klavixo kelganida ham pardoqlash ishlari davom etar edi. Klavixo o'z kundaliklarida Oqsaroy haqida shunday yozgan edi:

“Mohir ustalari bo'lgan Parijda ham bu binoni eng go'zal sanashlari turgan gap.”




Amir Temur tomonidan Samarqandga keltirilgan “Usmon Mushafi” haiqda turli hil manbalar bor. Amir Temur Iroqni bosib olgach, Qur’on qo’lyozmasini Kufadan Samarqandga olib kelgan deyishadi.

Mushafi Usmon.
Muqaddas Qur’oni
Karim kitobi.

Hozirgi kunda “Usmon Mushafi” O’zbekiston Musulmonlari idorasining kutubxonasida saqlanmoqda.

“Madinada Muhammad Turkistonda qul Ahmad”
deb mashhur bo’lgan Ahmad Yassaviyga atab qurilgan maqbara ham Amir Temur nomi bilan bog’liq. Ahmad Yassaviy maqbarasi musulmon sharqidagi me’moriy yodgorliklar orasida eng noyobidir.



Ahmad Yassaviy maqbarasi

Ahmad Yassaviy
maqbarasining 35 xonasi-
dan biri “qozonli xona” yoki
“halim xona” deb ataladi.
Chunki bu xonada halim
pishirib tarqatiladigan ulkan
birinj (bronza) qozon bor.
Sho’rolar davrida bu
doshqozon ham Peterburg-
ga olib ketilib, keyinchalik
qaytarib olingan.



Doshqozon.

Ahmad Yassaviy maqbarasi

Zangiota maqbarasi



Amir Temur Ahmad Yassaviy maqbarasini qurdirayotganda har kuni devor qulab tushaveradi. Shunda Yassaviy ruhlari paydo bo'lib, mendan avval shoshlik Zangiotaga maqbara quringlar degan ekanlar. Shundan so'ng Amir Temur Zangiota maqbarasini qurdirgan ekan.



Saroymulxonim

Bibixonim jome' masjidi



Amir Temur tomonidan
Saroy mukxonimga atab
1399-1404 yillarda qurilgan
jome' masjidini zamondosh
olim shunday ta'riflagan:

**“Osmon, uning gumbazi
nushasi bo'lmaganda u
yagona, somon yo'li unga
dugona bo'lmaganda arki
dunyoda bitta bo'lardi”.**


“Mamlakatimizning markazida, qadimiy va go’zal poytaxtimiz Toshkentimiz o’rtasida qad ko’targan ulug’ bobomiz siymosi xalqimizga faxr va surur bahsh etmog’i muqarrar. Mustaqil O’zbekistonda Amir Temur shaxsi Vatan va millat timsoliga aylandi”

Islom Karimov



Amir Temurning Toshkentdagi suvoriy

haykali. 1993 yil 31 avgust



Samarqand millatni
–millat, davlatni –davlat
qilgan Amir Temur
daholik qudratinig ramzi,
beqiyos ifodasidir. Amir
Temur davlatining poytaxti
Samarqand jahon
Sayqaliga aylangan edi.

Islom Karimov


Amir Temurning Samarqanddagi
haykali. 1996 yil 18 oktyabr



Sohibqiron Amir
Temurga beshik bo'lgan
makon – Shahrisabz –
Kesh, uni voyaga
yetkazgan ota makon,
yurtimizni bosqinchilar-
dan ozod qilish va kuchli
davlat tuzish g'oyalari
huddi shu yerda vujudga
kelgan.

Islom Karimov

Shahrizabz. Amir Temur haykali.
1996 yil 18 oktyabr



Temuriylar tarixi davlat muzeyi nafaqat tariximizning bebaho xazinası, balki ulkan tarbiya o'cho'gi hamdir. Zero, buyuklar bosib o'tgan yo'lni zehn va qunt bilan o'rganish har bir insonni kamolot pog'onalari sari eltadi.

Temuriylar tarixi davlat muzeyi.
1996 yil 18 oktyabr

“Oltin davr” yoki Sharq renessansi



Хизда Хукхэм
ЕТТИ ИКЛИМ
СУЛТОНИ

Angliyalik Xilda Xukxem hozirgi zamon G'arb temurshunosligida birnchi bor Amir Temur haiqdagi bor haqiqatni o'zining “Yetti iqlim sultoni” asarida yoritib berdi. Xilda Xukxem o'z umrining butun ongli qismini O'rta Osiyo tarixini, hususan Amir Temur tarixini o'rganishga bag'ishlab bu davrni “Sharq renessansi” deb tan berdi.



“Kuch bilim va tafakkurda”